

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA NUTQIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Isaxanova Mohigul Erkinovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.085>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy jarayonlarni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini rivojlantirishda o'qituvchining rolga aloxida urg'u beriladi. Maqolada muallifning boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy nuqsonlarini bartaraf etishga oid ilmiy qarashlari aks etgan. Nutq madaniyati va texnikasini ushbu yoshdagi o'quvchilarda rivojlantirishga doir mualliflik tavsiyalari berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf o'quvchisi, nutq, nutqiy buzilish, nutq madaniyati va nutq texnikasini rivojlantirish.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ РЕЧЕВЫХ ПРОЦЕССОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Исаханова Мохигул Эркиновна,
Старший преподаватель Кокандского государственного педагогического института

Аннотация. В данной статье описаны психологические особенности развития речевых процессов у учащихся младших классов. В статье подчеркивается роль учителя в развитии речи учащихся младших классов. В статье отражены научные взгляды автора на устранение дефектов речи учащихся младших классов. Даны авторские рекомендации по развитию культуры и техники речи у учащихся этого возраста.

Ключевые слова: Элементарная беглость, речь, речевые нарушения, развитие культуры и техники речи.

PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF SPEECH PROCESSES IN PRIMARY CLASS STUDENTS

Isakhanova Mohigul Erkinovna,
Senior teacher of the Kokan State Pedagogical Institute

Abstract. This article describes the psychological features of the development of speech processes in elementary school students. The article emphasizes the role of the teacher in the development of the speech of elementary school students. The article reflects the author's scientific views on the elimination of speech defects of elementary school students. The author's recommendations on the development of speech culture and technique in students of this age have been given.

Key words: Elementary fluency, speech, speech disorder, development of speech culture and speech technique.

“Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni –
bilim, ta'lim va tarbiya bo'ladi!”
SH.M.Mirziyoyev.

Kirish. Mamlakat taqdirini yoshlar kelajagi bilan bog'lagan va ularning istiqboli yurt istiqboli ekanligini anglagan xar inson eng avvalo shu yurtning bolalarini tarbiyalash va ta'lim berish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Shu qonuniyat asosida mamlakatimiz rahbarining ta'lim-tarbiya ishlarini siyosat darajasiga ko'tarayotganliklari bejiz emas. Shu o'rindha ularning saylov oldi dasturlarida o'rin olgan bosh masalalardan biri ham mamlakat yoshlarining istiqboliga qaratilgan edi: “Qadrli farzandlarim, bir narsadan ko'nglingiz to'q bo'lsin: sizlarning qobiliyat va iste'dodingizni ro'yobga chiqarish uchun biz bundan buyon ham barcha sharoit va imkoniyatlarni, albatta, yaratib beramiz. Men siz, azizlarning har biringizni o'zimning o'g'lim, o'zimning qizim, o'zimning nevaram, deb bilaman. Sizlarning har bir yutug'ingiz, g'alabangizni o'zimning yutug'im, o'zimning g'alabam, deb qabul qilaman. Jonajon

Vatanimiz, zahmatkash xalqimizning ana shunday yuksak ishonchi va mehriga doimo munosib bo‘ling, aziz o‘g‘il-qizlarim!” — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib fikr yuritish mumkinki yoshlar ta‘lim -tarbiyasi tamal toshi bolalik davrlarida mustaxkam tarzda qo‘yilmog‘i lozim. Bolanihg xar tomonlama rivojlanishi va kamol topishida boshlang‘ich sinf davrida tashkil etilgan ta‘lim va tarbiya jarayonining roli aloxida ahamiyatlidir. Aynisa bu davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish jarayonlari va nutqiy xususiyatlari jadallashgan palla sifatida namoyon bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda nutq taraqqiyoti ko‘p jixatdan uning atrofidagi olam bilan va tashkil etilgan o‘quv va tarbiya jarayonlarining sifati bilan bog‘liqlik kasb etadi.

Bolalar maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo‘lgan bo‘lsa, endi maktab o‘qituvchisi, sinf rahbari bilan muloqotda bo‘ladi. Bolalarda bu davrda mas‘uliyat hissi shakllanadi.

Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. Agar bu yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 500–600 so‘zni ishlatasa, olti–yoshli bola 3000–7000so‘zni ishlatadi. Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe‘l, sifat, son va bog‘lovchilardan iborat bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar o‘z nutqlarida qaysi so‘zlarni ishlatgani afzalu, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6–7yoshli bola o‘z jummlarini murakkab gramatik tizimda tuza oladi. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab boradilar va nutqni o‘zlashtirish ma‘lum bir faoliyatga aylana boradi. 7–9 yoshli bolalarning o‘ziga hos yana bir xususiyati bola nutqida o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, balki o‘z suhbatdoshining diqqatini o‘ziga jalb qilishini ham biladilar.

Bola maktabgacha yoshda o‘ylamasdan gapiradi, maktabda esa u gaplashayotgan til o‘qitiladigan va o‘rganiladigan ilm bo‘lib qoladi. Grammatikani o‘qib o‘rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihati to‘g‘ri bo‘lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o‘qitilayotgan hamma fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchi nutqining lug‘ati boyiydi, so‘zlarning mazmuni uning uchun chuqurlashadi va kengayadi. Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o‘shida muhim bosqich bo‘ladi. Bola o‘z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O‘quvchi o‘qituvchining topshirig‘iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o‘zining shu ishiga o‘z fikrining qanday til bilan bayon qilayotganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O‘quvchi

maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o‘ziga o‘zi gapirib berishni mashq qilib turishi nutqining o‘shiga katta ta‘sir qiladi.

Bolalar nutqining o‘shida o‘qituvchining nutqi katta rol o‘ynaydi, chunki uning nutqi o‘quvchilar uchun namuna hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘z nutqini takomillashtirish ustida ishlashi kerak. Maktabda bolalar uchun eng avvalo faol ishlatiladigan so‘zlarning miqdori oshadi. Yozma nutqni, o‘qish va yozishni o‘zlashtirish o‘quvchi hayotida hosil qilingan malaka hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tovushlami bir-biriga qo‘shish orqali so‘z tuzish malakasini egallab olgach, ba‘zida matn mazmunini noto‘g‘ri tushunadilar. Unga o‘quvchilarning so‘z boyligining kamligi yoki asosiy fikrni ajrata bilmasligi sabab bo‘ladi. Shu munosabat bilan o‘qituvchi oldida bolalarda lug‘at boyligini oshirish va uiami o‘qigan narsalari yuzasidan mustaqil reja tuzishga barvaqtroq o‘rgatish vazifasi turadi. Yozuv darslarida bola harf va so‘zlami yozishda katta qiyinchilikka duch keladi. Dastlab bola butun e‘tiborini yozish texnikasiga va o‘tirish qoidasiga rioya qilishga qaratadi. Avval bolaning yozma nutqi uning og‘zaki nutqi orqali belgilanadi, ya‘ni u so‘zni qanday talaffuz etsa shunday yozadi. Bu davrda bola bilan ovoz chiqarib aytish bo‘yicha muntazam mashqlar o‘tkazish uning imlo qoidalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishida katta ahamiyatga ega. Yozma nutqda imo-ishora, ohangdan foydalanilmaydi.

Shu bois bolalarning yozma nutqlari ulaming og'zaki nutqiga qaraganda ancha bo'sh bo'ladi. Bolalar nutqi kattalar nutqi ta'sirida o'sadi. Shuning uchun pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab og'zaki va yozma nutqni o'stirish bilan birga nutq madaniyatini ham o'rgatib borishlari zarur.

Tahlil va natijalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishda eng asosiy namuna obekti bu o'qituvchidir. O'qituvchining nutqi bolalar tomonidan xar tomonlama o'zlashtiriladi. Shuning uchun o'qituvchi nutq qoidalariga va chiroyli gapirish madaniyatiga ega bo'lishi, o'z nutqida madaniyatning nutqiy shaklini nomoyon eta olishi zarur. O'qituvchi shaxsining nutqiy malakasi bilan birga bolalarning nutq malakasini va madaniyatini shakllantirish malakasi xam bo'lishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish asosida quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq:

- so'zlashuv jarayonida so'zni to'g'ri qo'llashni tashkil etish;
- adbiy tilda suxbat qurishni yo'lga qo'yish;
- so'zlarning sinonimlaridan foydalanishni tashkil etish;
- ko'ch so'zlaridan foydalanmaslikni targ'ib qilish;
- kitob o'qishni targ'ib etish.


Yuqoridagi bu tavsiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining nafaqat nutq madaniyatini balki psixikasi va xulqiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq texnikasini shakllantirish jarayoni ham uning psixik xolati bilan aloqador jarayondir. Bu yoshdagi bolalarda nutqiy buzilishlar xodisasi tez-tez uchrab turadi. Masalan:

- tez shoshib gapirish;
- noto'g'ri nafas olish;
- nutqda duduqlanish;
- so'zlarni chalkashtirib yuborish.

Bu nutqiy buzilishlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida asosan ikki sabab, fiziologik va psixologik ta'sit natijasida vujudga keladi.

Boshlang'ich sinf yoshdagi o'quvchilarda nutqiy buzilishlarning sabablarida biri bu uning ovoz imkoniyatlarini nomoyon etuvchi fiziologik xususiyatdir. Bolada to'liq shakllanmagan ma'lum bir defektga ega bo'lgan og'iz aparati uning ravon gapirishiga monelik qiladi. Bu xolatda o'qituvchi maxsus mutaxassisga murojat etish orqali bola imkoniyatlarini o'rganadi. O'quvchida fiziologik nuqson bo'lgan taqdirda u doimiy nutqiy buzilishlarga sabab bo'adi.



Nutqiy talaffuzdagi kamchiliklarning psixologik xodisa sifatida namoyon bo'lishi asosan boshlang'ich sinf o'quvchilarida fiziologik sog'lom bo'lsada shoshib gapirganda, kuchli hayajon, strestga tushganda sodir bo'ladi. Bu xolat esa o'qituvchining mahorati asosida bartaraf etilishi zarur. O'qituvchi bolaga vazmin, shoshmasdan gapirish zarurligini uqtirishi zarur.

Nutqiy buzilishlarda xayajon, qo'rquv, strest holatlari asosan avtoretar uslubli o'qituvchi rahbarlik

qilayotgan sinflarda ko‘zga tashlanadi. O‘qituvchining o‘ta qattiqo‘l ekanligi o‘quvchilarda qo‘rquvni vujudga keltiradi natijada, bilgan narsasini han nutqda ifoda eta olmaydi, ko‘p kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. O‘qituvchi o‘quvchilarda psixik xodisa sifatida namoyon bo‘lgan nutqni anglagandan so‘ng o‘quvchi bilan ishlashda quyidagilarga amal qilishi zarur:

- bolaga xushmuomala bo‘lish;
- tortinchoq, uyatchan bolalarni ko‘proq savol - javob qilish orqali muhitga moslashtirish;
- strestga moyil bolalarga vazminlik asosida muomalada bo‘lish hamda qo‘rquvini yengishiga yordam berish;
- bolani maqtash, qo‘llab-quvatlash orqali uning psixikasiga ta‘sir ko‘rsatish;
- shoshilmasdan ifodali gapirishga mashqlantirish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda nutq bu xar bir millatning o‘ziga xos bo‘lgan madaniyatini aks ettiruvchi murakkab jarayondir. Shunday ekan millatimiz ko‘zgusi bo‘lgan yosh avlodni go‘zal, jozibali, ta‘sirchan nutq egalari bo‘lishi eng dolzarb vazifadir. «Qobusnoma» muallifi Kaykovus hamma xunarlaridan so‘z xunari - notiqlikni a‘lo deb bilgan: «Bilgilni hamma xunardan so‘z xunari yaxshi» – deb bejiz ta‘riflamagan. Unutmaslik kerakki nutq bu ijtimoiy xodisadir. Demak xar bir insonning nutq madaniyati boshqa insonlar nutqini rivojlantiradi va tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Zufarova. “Bolalar psixologiyasining muammolari”. Toshkent.2008-yil.
2. M.Maqsudova. “Muloqot psixologiyasi”. “Turon-iqbol”. Toshkent. 2006-yil.
3. G‘oziyev Ye. “Ontogenez psixologiyasi”.-T.: Noshir. 2010
4. Давлетшин М.Г., Мавлонов М.М, Тўйчиева С.М. “Ёш ва педагогик психология” Т. ТДПУ, 2009 .
5. Дусмухамедова Ш.А., Тиллашайхова Х.А., Байкунусова Г.Ю., Зиявитдинова Г.З., «Ёш даврлари ва педагогик психология» - Дарслик Тошкент. Низомий номидаги ТДПУ, 2020й.